



## SUG‘D BUDDAVIY YOZMA MANBALARINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY SHAROITLARI

*Norsafarov Oybek Xurshid o‘g‘li*

*Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti*

*Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari*

*1 - kurs magistranti*

[\*oybeknorsafarov@gmail.com\*](mailto:oybeknorsafarov@gmail.com)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada qadimgi sug‘d xalqi va ular yaratgan buddaviy yozma yodgorliklar, shuningdek bu yozma yodgorliklarning tarixiy, ma’naviy – ma’rifiy ahamiyati tahlil qilinadi. Sharqiy Turkistonda topilgan Sug‘d buddaviy matnlarining topilishi va bu matnlarning G‘arb va Sharq olimlari tomonidan o‘rganilishi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Sug‘dlar, buddaviylik dini, sutralar, Sharqiy Turkiston, Dunxuan, E. Benvenist, D.N. MakKenzi, N.Sims-Willyams, M.Is‘hoqov, Ji Xianlin, Yutaka Yoshida.

### **Annotation**

This article analyzes the ancient Sogdian people and the Buddhist written monuments they created, as well as the historical, spiritual, and educational significance of these written monuments. The article discusses the discovery of Sogdian Buddhist texts found in Eastern Turkestan and the study of these texts by Western and Eastern scholars.

**Keywords:** Sogdians, Buddhism, sutras, Eastern Turkestan, Dunhuang, E. Benveniste, D.N. MacKenzie, N. Sims-Williams, M. Ishoqov, Ji Xianlin, Yutaka Yoshida.



**Kirish:** Markaziy Osiyo qadimdan Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari tutashgan, turli madaniy-diniy an‘analar o‘zaro ta’sirlashgan noyob tarixiy-madaniy makon hisoblanadi. Ushbu hududda shakllangan sivilizatsion jarayonlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy munosabatlar, balki diniy-falsafiy qarashlar, yozma madaniyat va ma’rifiy an‘analarning rivojida ham muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li doirasida yuzaga kelgan madaniy almashinuv jarayonlari Markaziy Osiyoda buddaviylik, zardushtiylilik, maniheylik va keyinchalik islom kabi diniy tizimlarning o‘ziga xos sintezini vujudga keltirgan. Mazkur jarayonda sug‘dlar alohida o‘rin egallaydi. Sug‘dlar nafaqat yirik savdogar va diplomatlar sifatida, balki yozma madaniyat, tarjimonlik va diniy g‘oyalarni mahalliy muhitga moslashtirishda faol ishtirok etgan etnos sifatida ham tarixda muhim iz qoldirgan. Ayniqsa, sug‘d tilida yaratilgan buddaviy yozma yodgorliklar Markaziy Osiyodagi diniy-ma’naviy jarayonlarni o‘rganishda noyob manbaviy ahamiyatga ega bo‘lib, ular orqali buddaviylikning mintaqadagi tarqalish yo‘llari, mazmuniy transformatsiyasi va mahalliy madaniyat bilan o‘zaro aloqalari aniqlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Sug‘d buddaviy yozma manbalarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u turli metodologik yondashuvlarni qo‘llashni talab etadi. Mazkur tadqiqot doirasida sug‘d tilidagi buddaviy matnlarning kelib chiqishi, ularning tarixiy konteksti, til xususiyatlari hamda diniy-falsafiy mazmunini aniqlash uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalaniladi. Xususan, manbashunoslik, filologik hamda diniy-falsafiy tahlil metodlari ushbu tadqiqotning asosiy metodologik negizini tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilganda sug‘d buddaviy matnlarini har tomonlama va chuqur tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi. Sug‘d buddaviy yozma manbalarini o‘rganishda manbashunoslik metodining ahamiyati nihoyatda katta. Manbashunoslik tadqiqotlari yozma manbalarning kelib chiqish manbai, yaratilish davri, tarixiy sharoiti hamda ularning ilmiy ishonchlilik darajasini aniqlashga



qaratilgan. Ushbu metod yordamida sug‘d buddaviy qo‘lyozmalarining qayerda, qachon va qanday tarixiy muhitda yaratilgani aniqlanadi.

**Yozma manbalarning shakllanishi va tarixiy sharoitlari.** Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo vohalari, Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi Panj viloyati qadimda Sug‘d mamlakati deyilgan. Olimlarning fikrlariga ko‘ra bu o‘lkalarda sug‘dlar nomi bilan ma’lum xalq miloddan avvalgi XII-X asrlarda uyusha boshlagan. Bu uyushuv zaminida o‘sha zamonlarda ro‘y bergan ulkan migratsiya jarayoni yotadi. Yozma yodgorliklarda sug‘dlar haqidagi xabarlar miloddan avvalgi VI asrdan boshlanadi. Qadimgi Eron Ahamoniylar saltanati podsholari qoldirgan qoyatoshlardagi xotira bitiklarida va Qadimgi Yunon tarixchilari asarlarida sug‘dlar haqida ko‘plab qimmatli ma’lumotlar saqlanib qolgan. Qolaversa shakllanish tarixi uzoq qadimiyatga borib taqaluvchi Avesto kitobida Ahuramazda yaratgan ezgu diyordlardan biri Gava, bu yurtda sug‘dlar yashaydi deb yozilgan. Shunday qilib sug‘dlar O‘zbekistonimiz qadimiy davri tarixining ajralmas qismini yaratgan xalqdir.<sup>1</sup>

Sug‘dlar o‘lkamiz qadimiy ma’naviy hayotida faol ishtirok etib kelishgan. Ular zardushtiylik, buddaviylik, moniylik, nasroniylik va boshqa diniy e’tiqod turlariga amal qilib, har bir dunyo qarashning ma’naviy takomili, ularning qo‘shni xalqlarga ta’siri kabilarda ham alohida o‘rin tutishgan.

Sug‘dlardan qolgan yozma yodgorliklar miqdori ko‘p. Ularning mazmun doirasi ham keng. Tangalardagi yozuvlar, sopol parchalarida, metal buyumlarda, tosh va qoyalar sirtida, charmda, yog‘ochda, qog‘ozda, to‘qima matoda bizgacha qanchadan qancha xo‘jalik, yuridik xujjatlari, shaxsiy yozishmalar, hokim va podsholardan farmonlar, diplomatik yozishmalar yetib kelgan. Bulardan tashqari sug‘dlar o‘lkamizda qadimiy bitiklarning tilga kirishi va kitobat madaniyatini

---

<sup>1</sup> Qayumov A, Is‘hoqov M, Otaxo‘jayev A, Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. -T.: Yozuvchi, 2000-B.33.



rivojlantirishda ham katta ulush qo‘shgan. Sug‘dlardan bizgacha o‘nlab kitoblarning butun matnlari yoki katta – kichik parchalari ham yetib kelgan.

Sug‘d yozma yodgorliklari orasida buddaviy kitobat va adabiyotlarning salmog‘i juda katta. Xususan sug‘dlar orasida budda dinining eng asosiy aqidalari, axloqqa oid risolalari, buddaviy avliyolar – buddasaflar xayotiga bag‘ishlangan adabiyot, Budda sutralarining talay namunalari go‘zal xusnixat namunalari yordamida yozilgan. Kitoblar, o‘ramlar, qavatlangan taxlamlar ko‘rinishlarida bizgacha yetib kelgan. Ularda islomga qadar ajdodlarimizning e‘tiqodlari, ishonch, umid va orzulari, ezgulikni ulug‘lash va qaboxatni qoralash ibratlari aks etgan, falsafiy – axloqiy mushoxadalarini ifoda topgan.

Sug‘d buddaviy yozma yodgorliklarining shakllanish jarayoni, avvalo, Sug‘d jamiyatining iqtisodiy va madaniy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Sug‘diylar qadimgi davrlardan boshlab Markaziy Osiyoning eng faol savdogar xalqlaridan biri sifatida tanilgan. Ular Sharq va G‘arbni bog‘lovchi savdo yo‘llarida faol harakat qilib, turli madaniyatlar o‘rtasida vositachi vazifasini bajargan. Aynan shu savdo aloqalari orqali diniy g‘oyalar, falsafiy qarashlar va yozma an‘analar ham keng hududlarga tarqalgan. Buddaviylik ta‘limoti ham ana shunday madaniy almashinuv jarayonlari orqali Sug‘d hududlariga kirib kelgan va mahalliy muhitga moslashgan.

Milodiy IV–VIII asrlar Sug‘d jamiyati tarixida madaniy taraqqiyotning muhim bosqichi hisoblanadi. Bu davrda Sug‘d shaharlari nafaqat savdo markazlari, balki madaniy va diniy markazlar sifatida ham faoliyat yuritgan. Sug‘d hududidagi shaharlar, xususan Samarqand, Panjikent va Buxoro atrofidagi hududlar turli diniy an‘analar va madaniy ta‘sirlarning tutashgan markazlari bo‘lgan. Shu sababli bu hududlarda turli diniy matnlarning tarjima qilinishi, ko‘chirilishi va tarqatilishi jarayoni rivojlangan.

Sug‘d buddaviy yozma manbalarining shakllanishida tarjima faoliyati alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Buddaviy matnlar dastlab sanskrit yoki boshqa hind



tillarida yaratilgan bo'lib, keyinchalik ular Markaziy Osiyo xalqlarining tillariga tarjima qilingan. Sug'd tiliga qilingan tarjimalar esa bu jarayonning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Tarjima jarayonida matnlar nafaqat so'zma-so'z o'girilgan, balki ularning mazmuni mahalliy madaniy muhitga moslashtirilgan. Natijada buddaviy terminologiya sug'd tilida yangi tushunchalar va atamalar shakllanishiga olib kelgan.

Sug'd buddaviy qo'lyozmalarining muhim qismi Sharqiy Turkiston hududlarida topilgan. Bu hududlar qadimda buddaviy madaniyatining yirik markazlari bo'lgan. Ayniqsa Turfon vohasi va Dunxuan hududlarida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida sug'd tilidagi ko'plab diniy matnlar aniqlangan. Ushbu qo'lyozmalar orasida buddaviy sutralarning tarjimalari, diniy qissalar, axloqiy-didaktik matnlar hamda diniy marosimlarga oid yozuvlar mavjud. Mazkur qo'lyozmalar nafaqat diniy ta'limotni aks ettiradi, balki sug'd tilining rivojlanish bosqichlarini o'rganish uchun ham muhim manba hisoblanadi. Chunki bu matnlarda sug'd tilining grammatik xususiyatlari, leksik tarkibi hamda tarjima an'analari o'z aksini topgan. Shu bilan birga, buddaviy matnlarning sug'd tilida mavjudligi ushbu xalqning diniy hayoti va intellektual madaniyatining yuqori darajada bo'lganidan dalolat beradi.

Sug'd buddaviy yozma yodgorliklari diniy-falsafiy mazmuni bilan ham ajralib turadi. Ularning tarkibida buddaviylikning asosiy g'oyalari, axloqiy qadriyatlari va falsafiy qarashlari bayon etilgan. Bu matnlar orqali buddaviylik ta'limotining Markaziy Osiyoda qanday talqin qilinganini, uning mahalliy diniy an'analar bilan qanday uyg'unlashganini ko'rish mumkin. Ayrim hollarda buddaviy matnlarning mahalliy madaniyat ta'sirida qayta talqin qilingani ham kuzatiladi. Shuningdek, sug'd buddaviy matnlari o'sha davr madaniy aloqalarining keng qamrovli bo'lganini ham ko'rsatadi. Ular orqali Hindiston, Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi ilmiy va diniy aloqalar haqida muhim ma'lumotlar olish mumkin. Bu holat Sug'd jamiyatining nafaqat savdo, balki madaniy va intellektual almashinuv jarayonlarida



ham faol ishtirok etganini ko'rsatadi. Sug'd buddaviy yozma manbalarining shakllanishi murakkab tarixiy, madaniy va diniy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan. Buyuk Ipak yo'li orqali amalga oshgan savdo va madaniy aloqalar, buddaviy rohiblarning faoliyati hamda tarjima an'analari natijasida sug'd tilida muhim diniy-adabiy meros vujudga kelgan. Ushbu yozma manbalar Markaziy Osiyoda buddaviylikning tarqalishi, sug'd madaniyatining rivoji hamda qadimgi diniy-falsafiy qarashlarni o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Turk xoqonligiga qadar O'rta Osiyo (Baqtriya va Parfiya) buddizmning Xitoyga tarqalishidagi tranzit hudud hisoblangan. Targ'ibot ishlarida ko'plab o'rtaosiyolik missionerlar ishtirok etgan. Jumladan, manbalarda keltirilishicha, bu dinning targ'ibotchi-tarjimonlari orasida sug'dlik Kan Mensyan va qang'lik Kang Szyuxay nomlari zikr etilgan. Bundan tashqari, Xitoy tarixchisi Van Chjilayning yuechjilarni dastlabki buddaviy targ'ibotchilari edi, deyishi esa bu dinni dastlabkilardan bo'lib yuechji (ruziye)lar, keyinga nomi kushonlar qabul qilganligini ham isbotlaydi. Xususan, Xitoy hududiga buddaviylik ikki yo'ldan kirib borgan edi. Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xitoyga buddaviylik O'rta Osiyodan, Sharqiy Turkistonga esa Hindiston – Qoraqurum dovonidan o'tib kelgan. Birinchisi bizning mintaqada mahayana (katta g'ildirak) oqimi, Tibet va Kashmir orqali xinoyana (kichik g'ildirak) oqimi kirib borgan. Shu ma'noda Xitoyning maxayana oqimi vakillari va ularning hukmdor rahnamolari doimo o'z buddaviy rohiblarini O'rta Osiyoga yuborib turishgan. Jumladan, 518-522 yillarda yurtimiz hududidan o'tgan Syuan Szandan tashqari, keyingi asrlarda Chjan Chyan, Ban Chao, Chju Sishing, Fa Syan, Sun Yun, Xuey Sheng, Shyuan Zang, Vu Kung kabi rohiblar turli maqsadlarda O'rta Osiyoga tashrif buyurishgan.<sup>2</sup> O'rta Osiyoning buddaviy vakillari IV–V asrlardanoq buddaviylik falsafasi aks etgan adabiyotlarni xitoy tiliga o'gira boshlaganlar. Adabiyotlarni tarjima qilganlar orasida 16 ta o'rtaosiyolik: oltita

<sup>2</sup> Ataxo'jayev A. Sug'diylar va buddaviylik falsafasi/Sharqshunoslik, TDSHU, 2023- B. 5.



yuechjey (kushonlik), to‘rtta parfiyalik, uchta sug‘dlik, ikkita kuchalik – toxar va bitta xo‘tanlik bo‘lgan. Ularning tarjimachilik mahorati bois, salmoqli darajada buddaviylik falsafasiga oid adabiyotlarning namunalari bizgacha yetib kelgan. Hatto, bu adabiyotlarning ayrimlari bizning davrimizda o‘zbek tiliga ham tarjima qilindi.

Qadimgi Sug‘d, uning boy madaniy – tarixiy merosi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarigacha ilmiy adabiyotlarda yoritilmay kelingan. Bunga sabab o‘tmishning shu muhim bosqichi bo‘yicha yozma manbalar mukammal o‘rganib chiqilmagani, qolaversa mazkur hududning o‘zidan arab istilosiga qadar davrga oid yozma yodgorliklar yetarli emas. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa fan tasarrufidagi manbalarni umumlashtirish asosida bir qator tadqiqotlarning yaratilishi Sug‘dning zamonaviy ilmiy tarixnavisligiga asos bo‘ldi. Jumladan 1877-yilda V.Tomashek xitoy, arab va fors manbalari asosida qadimgi Sug‘d va o‘rta asr Sug‘dining tarixiy – geografik va siyosiy xaritasini tiklash maqsadida birinchi monografik tadqiqotni chop ettirdi<sup>3</sup>.

Sug‘diy “o‘lik” tilning guvohligi bo‘lmish manbalar ustida gapirishdan oldin sug‘d yozuvining hamda sug‘diy tilning aniqlanishi tarixini aytib o‘tish lozim. Gap shundaki, XIX asr oxirida Sharqiy Turkiston, hozirgi XXRning Shinjon avtonom rayoni jahonning qudratli davlatlari o‘rtasida strategik siyosiy-harbiy to‘qnashuvlar maydoniga aylangan edi. Inglizlar, ruslar, Farnsuzlar, nemislar, qo‘yingchi, dunyoni kolonial taqsimoti ustidagi tortishuvda Sharqiy Turkistonga alohida e‘tibor qaratilgan edi.

Bu o‘lkaning tabiiy resurslarini aniqlash, kelajakda ulardan foydalanish va Sharqda kuchli tayanchga ega bo‘lish yo‘lida hududni ta’sir doiralariga taqsimlashga qaratilgan rejalar qatorida ilmiy o‘rganish ko‘rinishidagi harakatlar ham bor edi. Shu maqsad bilan Sharqiy Turkistonda inglizlar (Avriyel Steyn boshliq), fransuzlar

<sup>3</sup> Shoyoqubov Sh.Ilk o‘rta asrlarda sug‘d.-T.:Iqtisod-moliya, 2008. B-8.



(P.Pelyo boshliq), ruslar (S.Oldenbourg boshliq) ekspeditsiyalarini yubordilar. Ushbu ekspeditsiyalarning kompleks rejalari qatorida mintaqada mavjud qadimiy yozma yodgorliklarni topish va o‘z davlatlari fondlariga yetkazish vazifasi ham bor edi. Bu masala ekspeditsiyalarni ko‘p kuttirmadi.

Sharqiy Turkistondan qadimgi uyg‘ur turkiysida, hindistondan chiqib tarqalgan braxmi, kxaroshtxi, moniy, suryoniy, qadimgi turkiy va boshqa yozuvlar aks etgan ko‘p miqdorda yozma yodgorliklar topildi. Bular orasida bir yozuv bor ediki, uning tilini aniqlash qiyin bo‘ldi. Nemis olimi F.V.K.Myuller moniy yozuvli matnlarni nashrga tayyorlash davomida Turfon vodiysidan topilgan moniy, o‘rta fors, parfiyoniy va boshqa tillardagi qo‘lyozmalar orasida noma‘lum “pahlaviy shevasi”dagi matnlar borligini bildirgan edi. Ko‘p o‘tmay, 1904 yilda daniyalik olim F.K.Andreas “noma‘lum dialekt”dagi matnlar bilan tanishib, ularda uchragan taqvim atamaları Abu Rayhon Beruniyning “Osor ul-boqiya, anal qurun ul-holiya” asarida ko‘rsatilgan sug‘diy taqvim nomlari bilan bir xil ekanini aniqladi. Bu voqea unutilgan sug‘diy tilning qayta kashf etilishi edi. Tez orada F.K.Andreasning kashfiyotini F.V.K.Myuller tasdiqladi. Rus olimlaridan K.G.Zaleman buni qo‘llab quvvatladi. Shunday qilib, 1904 yil sug‘dshunoslikning fan sifatida yuzaga kelish yili bo‘ldi. Sug‘diy tilning grammatik tavsifi K.G.Zaleman (xristian diniy matnlari asosida), F.V.K.Myuller (moniy diniy matnlari asosida), R.Gotyoy (buddaviy diniy matnlar asosida) 1907-1914-yillar davomida keng ko‘lamda boshlangan. Ammo bu tadqiqotlar ulkan miqdordagi yozma yodgorliklarning barchasini qamrab ololmagan edi. Biroq ushbu boshlang‘ich davridayoq sug‘diy til grammatikasining ko‘pgina xususiyatlari haqida tizimli ma‘lumotlar yig‘ilgan edi. Masalan, K.G.Zaleman sug‘diy xristian diniy matnlari tili sug‘diylarning og‘zaki nutqi asosiga tayangan ekanini, buddaviy diniy matnlarda tarixiy orfografiya amal qilganini, moniy diniy tekstlarida har ikki, ya‘ni adabiy me‘yor hamda og‘zaki nutq xususiyatlari borligini aniqladi. G.Rayxelt esa, sug‘diy tilda grammatik suffikslarning taqsimlanishi so‘z o‘zagining unli tovushlari cho‘zqligi yoki qisqaligi hamda bo‘g‘inlar soniga bog‘liq



ekanini aniqladi. Bu qonuniyat sugʻdiy tilning ritmik qonuni degan nom oldi. Ushbu qonunning maʼnosi shuki, bir hildagi grammatik ot oʻzaklar turlanishi va feʼl oʻzaklarining tuslanishida unli tovush talabi bilan yoki boʻgʻinlari soniga qarab turli suffikslar tanlanadi.

Olimlar sugʻdiy matnlar nashrlari va ular bilan bogʻliq grammatik tadqiqotlarda mavjud uch turdagi yodgorliklarning til xususiyatlarini doimiy ravishda qiyoslash tamoyiliga amal qilib kelganlar. Bu sohada R.Gotyo, G. Rayxelt, E. Benvenist, W.B. Xenning, I. Gershevich, D.N. MakKenzi, M. Shvars, V.Zunderman, N.Sims-Willyams, M.Isʼhoqov tadqiqotlari misol boʻla oladi.

Buddaviy matnlar asosan Dunxuandagi buddaviy jamoalarning gʻor koʻrinishidagi monastirlaridan hamda ayrim matn parchalari Turfon vohasidan topilgan. Sugʻdiy buddaviy matnlarning katta qismi Parijda, bir turkumi Londonda, yana bir qator matn parchalari Berlinda hamda Sankt-Peterburgda saqlanadi. Parij va London jamgʻarmalaridagi matnlar asosan transliteratsiya, fakismel shakllarida hamda fransuz, ingliz tillariga tarjima qilib nashr etilgan. (E.Benvenist; D.N.Makkenzi), Sankt-Peterburg sugʻdiy fragmentlar nashri ham amalga oshirilgan (F.A.Rozenberg; A.N.Ragoza). Buddaviy matnlarning eng kattasi (1513 satr) Vessantara Jataka. Hajmiga koʻra ikkinch oʻrinda turuvchsi “Akrti anbant paturi pustak” (“Qilmishlarimizning sabablari va eng yaqin oqibatlar”) nomli sutradir (571 satr).<sup>4</sup>Xozirgi kunda olimlar orasida aloxida sugʻdshunoslik maktablari vujudga kelgan. Jumladan Fransiyada F.Grene, E.de la Vesier kabi olimlar, Italiyada esa M.Kompareti, C.Kristoforetti, Germaniyada M.Mode, Z.Shtark, Yaponiyada Y.Yoshida kabi olimlar mansub olimlar aloxida sugʻdshunoslik markazlari nafaqat Sugʻd tarixi, balki sugʻdiy hujjatlar taxlili boʻyicha ilmiy maqola va asarlar chop qilishmoqda.

---

<sup>4</sup> Isʼhoqov M. Gʻoyibov B. Sugʻdiy til tarixi.-T.:Toshkent, 2024.- B, 27.



Sugʻd buddaviy matnlarini ilmiy jihatdan oʻrganish jarayoni XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hamda Sharqiy Turkiston hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar bilan bogʻliq holda shakllana boshladi. Bu davrda topilgan koʻplab qoʻlyozmalar sugʻd tilidagi buddaviy matnlarning ilmiy muomalaga kirib kelishiga sabab boʻldi. Keyinchalik ushbu matnlar Sharq va Gʻarb olimlari tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida oʻrganila boshladi. Natijada sugʻd buddaviy yozma merosini oʻrganish alohida ilmiy yoʻnalish sifatida shakllandi. Sugʻd buddaviy matnlarini oʻrganishda Gʻarb olimlarining hissasi ayniqsa katta boʻlgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropa davlatlari tomonidan tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiyalar Sharqiy Turkiston hududlarida keng koʻlamli arxeologik izlanishlar olib bordi. Ushbu ekspeditsiyalar natijasida koʻplab qoʻlyozmalar, jumladan sugʻd tilidagi buddaviy matnlar ham topildi. Gʻarb olimlari orasida nemis sharqshunosi Friedrich Carl Andreas sugʻd tilini oʻrganishda muhim rol oʻynagan tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. U sugʻd yozuvi va tilining asosiy xususiyatlarini tahlil qilib, keyingi tadqiqotlar uchun ilmiy asos yaratgan. Uning ilmiy ishlari sugʻd tilidagi diniy matnlarni oʻqish va talqin qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan. Sugʻd buddaviy matnlarini oʻrganishda yana bir muhim olim nemis olimi Walter Bruno Henning hisoblanadi. U sugʻd tilidagi qoʻlyozmalarni filologik jihatdan chuqur tahlil qilib, ularning koʻplab qismlarini ilmiy muomalaga kiritgan. Henning sugʻd tilining grammatik tuzilishi va diniy terminologiyasini oʻrganishda katta hissa qoʻshgan. Gʻarb tarixshunosligida sugʻd buddaviy matnlarini oʻrganishga katta hissa qoʻshgan olimlardan yana biri fransuz tadqiqotchisi Émile Benveniste hisoblanadi. U sugʻd tilining leksik va grammatik xususiyatlarini oʻrganib, buddaviy matnlarning til jihatidan tahliliga muhim ilmiy hissa qoʻshgan. Shuningdek, fransuz sharqshunosi Paul Pelliot ham sugʻd matnlarini oʻrganishda muhim rol oʻynagan. U Sharqiy Turkiston hududlarida olib borilgan ilmiy ekspeditsiyalar davomida koʻplab qoʻlyozmalarni aniqlagan va ularni ilmiy jihatdan tavsiflab bergan. Britaniyalik tadqiqotchi Harold Walter Bailey ham sugʻd va boshqa



o'rtta eroniy tillarni o'rganishda muhim hissa qo'shgan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlari sug'd tilidagi buddaviy matnlarni filologik va tarixiy jihatdan tahlil qilishga katta yordam bergan.

Sug'd buddaviy matnlarini o'rganishda Sharq mamlakatlari olimlari ham muhim rol o'ynagan. Ayniqsa Xitoy, Yaponiya va Markaziy Osiyo tadqiqotchilari buddaviy qo'lyozmalarni o'rganish jarayonida sug'd tilidagi matnlarga alohida e'tibor qaratgan. Xitoy tarixshunosligida mashhur olim Ji Xianlin buddaviy qo'lyozmalar va Markaziy Osiyo madaniy aloqalarini o'rganishda katta hissa qo'shgan. U Sharqiy Turkiston hududlaridan topilgan buddaviy qo'lyozmalarni tahlil qilish orqali buddaviylikning Markaziy Osiyo orqali Xitoyga tarqalish jarayonini yoritib bergan. Yapon olimlaridan Yutaka Yoshida sug'd tilini o'rganishda yetakchi tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. Uning ilmiy ishlari sug'd yozuvi, sug'd hujjatlari va diniy matnlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, zamonaviy sug'dshunoslikda muhim o'rin egallaydi.

### **Xulosa**

Taqdim etilgan materiallar va ilmiy tahlillar asosida quyidagi muhim xulosalarga kelish mumkin.

Birinchi, Sug'd davlati va sug'd xalqi O'rta Osiyo tarixining ajralmas va boy qismini tashkil etadi. Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo vohalari hamda Zarafshon daryosining yuqori oqimida joylashgan Panj viloyatini o'z ichiga olgan bu o'lkada sug'dlar miloddan avvalgi XII–X asrlardayoq uyusha boshlagan. Ular Avesto kitobida ulug'langan, Ahamoniylar podsholari qoyatoshlardagi bitiklarida va qadimgi yunon tarixchilari asarlarida tilga olingan qadimiy xalq bo'lib, o'lkamizning ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy hayotida o'chmas iz qoldirgan. Sug'dlar zardushtiylik, buddaviylik, moniylik va nasroniylik kabi turli diniy e'tiqodlarga amal qilgan bo'lib, har bir dunyo qarashining ma'naviy takomilida va bu ta'limotlarning qo'shni xalqlarga yoyilishida faol ishtirok etishgan.



Ikkinchidan, sug'd yozma yodgorliklari tarkibi son va mazmun jihatidan o'ta xilma-xildir. Tangalardagi yozuvlardan tortib sopol parchalari, metal buyumlar, qoya sirlari, charm, yog'och, qog'oz va to'qima matolarda yozilgan xo'jalik hujjatlari, yuridik bitimlar, diplomatik yozishmalar, shaxsiy xatlar va podsholar farmonlari bizgacha yetib kelgan. Bu yodgorliklar orasida buddaviy kitobat va adabiyotlar alohida o'rin tutadi. Buddaviylikning asosiy aqida va axloq-odob ta'limotlari, buddasaflar hayotiga bag'ishlangan risolalar hamda turli sutralar go'zal xusnixat namunalari yordamida yozilgan holda kitoblar, o'ramlar va qavatlangan taxlamlar shaklida bizgacha etib kelgan. Ushbu yodgorliklar islomga qadar ajdodlarimizning e'tiqodlari, orzulari, falsafiy-axloqiy mushohadalari hamda ezgulikni ulug'lash ibratlari xazinasidan dalolat beradi.

Uchinchidan, Sug'd buddaviy yozma manbalarining shakllanishi murakkab tarixiy, madaniy va savdo-iqtisodiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Qadimdan Markaziy Osiyoning eng faol savdogar xalqlaridan biri bo'lgan sug'diylar Buyuk Ipak yo'li orqali Sharq va G'arbni bog'lagan holda madaniyatlar va g'oyalar almashinuvida ko'prik vazifasini o'tagan. Aynan shu yo'l orqali buddaviylik ta'limoti ham Sug'd hududlariga kirib kelib, mahalliy muhitga moslashgan. Milodiy IV–VIII asrlarda Samarqand, Panjikent va Buxoro kabi shaharlar nafaqat savdo, balki madaniy va diniy markazlar sifatida ham faoliyat yuritgan. Bu shaharlar turli diniy an'analar va intellektual ta'sirlarning tutashgan qovushma nuqtasi bo'lib xizmat qilgan.

To'rtinchidan, sug'd buddaviy matnlarining katta qismi Sharqiy Turkiston — bugungi Xitoyning Shinjon avtonom rayoni hududlarida, xususan Turfon va Dunxuan kabi qadimgi buddaviy markazlarda arxeologik qazishmalar natijasida aniqlangan. Bu qo'lyozmalar orasida buddaviy sutralar tarjimalari, diniy qissalar, axloqiy-didaktik matnlar va diniy marosimlarga oid yozuvlar mavjud bo'lib, ular sug'd tilining rivojlanish bosqichlari, grammatik xususiyatlari, leksik tarkibi va tarjima an'analari to'g'risida ham muhim manba hisoblanadi. Mazkur matnlarning



mavjudligi sug'd xalqining diniy hayoti va intellektual madaniyati naqadar yuksak darajada bo'lganini yaqqol ko'rsatib turibdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qayumov A, Is'hoqov M, Otaxo'jayev A, Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar.-T.:Yozuvchi,2000
2. Ataxo'jayev A. Sug'diylar va buddaviylik falsafasi/Sharqshunoslik,TDSHU, 2023. Ilmiy jurnal.
3. Shoyoqubov Sh. Ilk o'rta asrlarda sug'd.-T.:Iqtisod-moliya, 2008.
4. Is'hoqov M. G'oyibov B. Sug'diy til tarixi.-T.:Toshkent, 2024.